

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI
O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

2024-yil 17-may

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

17 мая 2024 года

Collection of materials of the international scientific and practical conference

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

May 17, 2024

Guliston – 2024

8. Ибрагимов В. Ижтимоий фаоллик ва толерантликни юксалтиришнинг муҳим жиҳатлари. Research Focus, Uzbekistan. Volume 1 | Issue 4 | 2022. – Б. 351-354.

9. Жазыкова М.К. Жас ұрпақты толеранттыққа тәрбиелеудегі мектеп пен отбасының әрекеттестігі. Қазақ мемлекеттік қыздар педагогикалық университетінің Хабаршысы. № 2 (78), – Алматы, 2019. – Б. 227-233.

10. <https://kpfu.ru/portal/docs/F2070830177/12>. – Gagaev. pdf.

11. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tolerantlik-uz/>

NEMIS TILI LUG‘AT TARKIBIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA ULARNING KIRIB KELISH OMILLARI

Umarova Zamira Qahramon qizi, o‘qituvchi, O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tiliga chet tillardan o‘zlashgan so‘zlar va ularning kirib kelish yo‘llari haqida so‘z boradi. Kirish qismida til lug‘at tarkibining boyish usullari, o‘zlashma tushunchasiga berilgan ta’riflar haqida so‘z boradi. Adabiyotlar tahlili qismida nemis tiliga qaysi tillardan va qaysi sohalarda so‘zlar o‘zlashgani haqida fikr yuritiladi. Nazariy asoslar qismida o‘zlashma so‘zlarning ahamiyati va roli haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zlashmalar, nemis tili, lug‘at tarkibi, xorijiy tillar, kelt tili, lotin tili, ingliz tili, fransuz tili, anglisizmlar, rivojlanish, so‘z boyligi, o‘zlashtirish;

Ma’lumki, dunyodagi har bir xalqning jahon siviliziyasidagi o‘rni va mavqei uning betakror milliy o‘zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o‘zlikning birinchi belgisi bu milliy til bo‘lib, u millatning millat bo‘lib shakllanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi. Xalqning madaniy-ma’naviy boyligi, tafakkuri uning tilida o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda, til xalqning buyuk va bebaho ma’naviy boyligi, bitmas tunganmas xazinasidir. Til, ayniqsa uning lug‘at tarkibi doim o‘sish va o‘zgarishda bo‘ladi. Til lug‘at boyligini kengaytirishning eng muhim usullaridan biri bu boshqa tillardan so‘zlarning o‘zlashish jarayonidir. Chet tilidan so‘zlarning kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilda ma’lum bir yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi va bu turdagi so‘zlar guruhi o‘zlashma so‘zlar deyiladi. O‘zlashma so‘zlar tushunchasiga olimlar tomonidan turli xil ta’riflar berilgan:

Hadumond Bußmanning fikriga ko‘ra, “o‘zlashma so‘zlar, odatda ona tilida yangi yaratilgan narsa yoki hodisalarning nomi bo‘lmagan hollarda chet tilidan o‘zlashtiriladi.[2, 213-b.].

Wilhelm Bondzining so'zlariga ko'ra, "xorijiy so‘zlar o‘zining ma'nosi bilan birga to'liq, ba'zida esa bir nechta ma'nolardan faqat bittasigina o‘zlashishi mumkin. Asta-sekin bu xorijiy so'zlar o'zining formasi, imlosi va talaffuzi bilan o'zlashtirilgan til tizimiga moslashadi, masalan: Lotin tilidan Fenstra nemis tiliga das Fenster shaklida o‘zgargan”.[1, 182-b.].

G‘arbiy Yevropa tillaridan biri hisoblangan nemis tili yillar davomida qo‘shni davlatlarning tillari, jumladan qadimgi kelt tili, lotin tili, shuningdek fransuz, ispan va ingliz tillaridan olingan so‘z va iboralar asosida o‘z lug‘at tarkibini

boyitib kelgan. O'zlashma so'zlar odatda nemis tilining ajralmas qismi hisoblanadi.

Zamonaviy nemis tilini tahlil qilishda mahalliy lug'at bilan bir qatorda chet tillaridan o'zlashgan leksik elementlar ham ajralib turadi. Nemis tili o'z taraqqiyoti jarayonida boshqa tillar yordamida ham boyidi, ham o'zgartirildi va shu bilan bir qatorda boshqa xalqlar tomonidan nemischa so'zlar ham chet tillariga o'zlashtirildi. Nemis tilining ilk shakllanish davrida lotin tilining lug'at boyligi yetakchilik qilgan bo'lsa, 9-13 asrlarda fransuz va ispan tillaridan, Yevropadagi uyg'onish davrida italyan tilidan, fan-texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda esa ingliz tildan o'zlashgan so'z va iboralar nemis tilining lug'at tarkibidan muqim o'rin egallaganligi e'tiborga molikdir.

Barcha xalqlar bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib, bu tillarning doimiy o'zaro ta'siriga olib keladi. Boshqa tillardan butunlay ajralgan holda rivojlangan til mavjud emas.

Qadimgi germanlar davrida ham Germaniya boshqa xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lgan va bu nemis tili lug'atining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Nemis tili o'zining madaniy taraqqiyoti davomida xorijiy so'zlarning kuchli istilosiga uchradi. Nemis lug'atiga chet tillaridan so'zlarning kirib borish jarayoni ikki yo'l bilan sodir bo'lgan: yoki g'alaba qozongan xalq tili va mag'lub bo'lganlar tili lug'atini o'zaro o'zlashtirish natijasida yoki xalqlar o'rtasidagi turli xil o'zaro bog'lanishlar natijasida.

Nemis tili lug'at boyligining o'zlashma so'zlar orqali boyitilishi tarixiy faktlar va nemis xalqi tarixi bilan bog'liq. Hozirgi Germaniya hududida nemis qabilalari kelgunga qadar kamida uch yoki to'rtta qabilalar, jumladan keltlar yashagan bo'lib, bu kelt tilidan nemis tiliga so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lgan. Tarixiy jarayonlar natijasida, ma'lum miqdordagi kelt so'zlari qadimgi german dialektlariga kirib keldi. Ushbu so'zlarning ba'zilari hozirgi zamonaviy nemis tiliga qadar saqlanib qolgan bo'lib, ular asosan qishloq xo'jaligi, harbiy va ijtimoiy sohalariga oid so'zlardir. Quyidagi so'zlarni kelt tilidan o'zlashgan deb tasniflash mumkin: Amt (hukumat idorasi), Reich (imperiya, territoriya), Erbe (meros), Held (qahramon), Burg (qal'a), Dorf (qishloq), Leder (charm), va boshqalar. Ba'zi bir atoqli otlar, ham shaxs, ham joy nomlari ham kelt tilidan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi: Dietrich, Rhein, Main, Donau va b.[4, 93-b.].

Nemis xalqi va boshqa xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar asosida o'zlashgan so'zlar nemis tili lug'atini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Miloddan avvalgi birinchi asrlarda ham qadimgi germanlar rimliklarning ancha yuqori madaniyati bilan tanishgan bo'lib, bu asosan qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, harbiy, qurilish va maishiy sohalarida namoyon bo'ladi:

a) qishloq xo'jaligida: Pflanze(o'simlik) lotincha planta; Käse(pishloq) lot. caseus; Korb (savat) lot. korbis; Kohl(karam), lotin caulis; Wein(vino) lot. vinum va boshqalar.

b) savdo-sotiq sohasida: Münze (tanga) lot. moneta; Markt (bozor)lot. mercatus; kaufen (sotib olmoq) lotin caupones; va b.

c) qurilish sanoatida: Mauer (devor) lot. murus; Fenster (oyna), lot. fenestra; Kammer (Palata) lotin camera; va b.[4, 95-b.].

Lotin tilidan o'zlashgan so'zlar nemis tili lug'atini boyitishda beqiyos rol o'ynaydi. Hech qaysi til lotin tilichalik nemis tiliga uzoq vaqt o'z ta'sirini o'tkazmagan. Germaniyada nasroniylikning tarqalishi bilan nemis tiliga ko'plab lotin tilidan so'zlar kirib keldi, ayniqsa bu so'zlar diniy qarashlar va cherkov urf-odatlarini bilan bog'liq: Kloster, ahd. klôster lotincha claustrum; Münster, ahd. munistri, lotin monasterium; Mönch, ahd. munih(h), lotin monachus; Nonne, ahd nunna, lat. nonna; opfern, ahd. opfaron, lat. operari va boshqalar.[4, 95-b.].

Xulosa qilib aytganda, o'zlashma so'zlar nemis adabiy tilining turli tarixiy taraqqiyot davrlarida turlicha ijtimoiy sabablar bilan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda ham faol qo'llanilib kelinmoqda. Xorijiy tillardan olinayotgan lisoniy birliklar tilda paydo bo'lgan muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Til leksikasi ijtimoiy va ruhiy olamning barcha xususiyatlarini o'zida namoyish qiladi. Shu sabab ham jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy olamidagi har bir yangilik, har bir o'zgarish eng avvalo tilning lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Til ijtimoiy hayotdagi xalq bosib o'tgan tarixiy yo'llning izlarini aks etadi.

Adabiyotlar

1. Bondzio Alle Wörter mit neuem Inhalt. Wissen und Berlin, 1984.
2. Bussmann H. Lexikon der Sprachwissenschaft. 2. Völlig neu bearb. Aufl. Stuttgart: Alfred Kröner Verlag, 1990.
3. Гусева А. Э., Ольшанский И. Г., Лексикология немецкого языка, – Москва, Издательство Юрайт, 2018.
4. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie, Leningrad, 1960
5. Stepanova M. D., Chernisheva I. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – M.: 1975.
6. Schippan Thea. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache, Max Niemeyer Verlag Tübingen, 2002.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ЛИНГВОПРАГМАТИКИ: АНАЛИЗ И ПРИМЕНЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

Алихасанова Зулфия Физулиевна, преподаватель, Гулистанский государственный педагогический институт

zulyaaligasanova6@gmail.com

Искандарова К. С., студент, Гулистанский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные понятия лингвопрагматики, освещаются основные теории и методы лингвопрагматики, их роль в анализе коммуникативных ситуаций и в понимании межличностных отношений. Автором обсуждается применение понятий лингвопрагматики в современном обществе и приводятся выводы о важности их учета при изучении языка и общения.

Ключевые слова: лингвопрагматика, коммуникация, категориальный аппарат, языковые средства, речевое действие.